

ANVAR OBIDJON SHE'RLARINING BOLALAR ADABIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Jamoldinova Risola Qobiljon qizi

Andijon davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining yirik vakillaridan biri Anvar Obidjonning badiiy merosi tahlil qilinadi. Shoirning bolalar uchun yozgan she'riy asarlarida badiiy-estetik tamoyillar, ijtimoiy va axloqiy motivlarning uyg'unligi yoritiladi. Maqola adibning bolalar ongini shakllantirish, estetik didini rivojlantirish va ijtimoiy faolligini oshirishdagi o'rni yoritiladi. Bolalar adabiyotini boyitgan she'rlari tahlil qilinadi.*

Kalit So'zlar: *Anvar Obidjon, bolalar adabiyoti, estetik tarbiya, badiiy obraz, milliy qadriyatlar, she'riy til, ijtimoiy kompetensiya, zamonaviy mavzular*

Istiqlool davri o'zbek bolalar she'riyatida mavzu va talqindagi yangilanishlar yuz berdi. Istiqlool sharofati

va sabzavotlar haqida yozgan she'rlari bugunga kunda bolalarni sevinli she'rlariga aylanib ulgurgan. bilan milliy, madaniy, adabiy, tarixiy qadriyatlarimizning tiklanishi va ularning o'zbek bolalar she'riyatida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, ushbu davr bolalar she'riyatining ma'rifiy-tarbiyaviy xususiyatlari haqidagi savollarga tom ma'noda Anvar Obidjon she'rlarini tahlil qilish davomida javob topamiz.

O'zbek bolalar adabiyoti asrlar davomida xalq og'zaki ijodi, maqollar, topishmoqlar, ertaklar va she'riy namunalar orqali boyib kelgan. Ammo uning zamonaviy adabiyot sifatida shakllanishi XX asr oxirlarida yangi qirralarni kasb etdi. Ana shunday yangilanishlar mualliflari orasida Anvar Obidjon alohida e'tiborga loyiq ijodkor sifatida ajralib turadi. U bolalar uchun yozishda faqatgina mavzuni emas, balki

intilishlari o'zi bilan bir xil bo'lgan tengdoshlarini qidirishi tabiiy. Anvar Obidjonning mevalar va sabzavotlar haqida yozgan she'rlari alohida ahamiyat kasb etadi. "So'nggi axborot", "Pomidor", uslub, obraz, til va pedagogik yondashuvda ham yangilik yaratgan adibdir. Uning ijodi bolalarning fikrlash dunyosi, estetik didi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy ongini shakllantirishda xizmat qiladi.

Ijodkor asarlarini bolalarga mo'ljallab yaratar ekan, uning asosiy qahramonlari bolalar bo'lishi ham tabiiyligi, chunki kitobni o'qiyotgan bola asardan, avvalo, o'zini, o'y-fikri, dunyoqarashi, izlanish- "Bodring", "O'rik", "Qalampir" kabi she'rlari hamda "Dalalardan bolalarga" nomi ostida bir qator meva Maktab darliklarida, o'qish kitobi va boshlang'ich sinf alifbesida Anvar Obidjon ijodidan namunalar alohida o'rin egallaydi. Quyida "So'nggi axborot" she'rini tahlil qilsak:

Bo'lib o'tdi qishloqda kecha zo'r shamol

Natijada ro'y berdi anchayin korhol

Ushbu she'rning sarlavhasiyoq bolalarda qiziqish uyg'otadi, she'rni o'qishga, endigina maktab bilan, o'qish yozish bilan tanishgan bolajonlarning she'r haqidagi tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. "Dalalardan bolalarga" nomli to'planida esa kichik yoshdagi bolalar

uchun meva-sabzavotlar tilidan yozilgan she'rlar jamlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, bolalarni meva-sabzavotlar bilan tanishtirish jarayonida o'qtuvchilar va ota-onalar uchun haqiqiy o'quv darsligi sifatida baholash mumkin.

Ikki yuzim burishqoq
Dema meni urishqoq
Ishga solib aqlimni
Sezdirmayman jahlimni
Agar shirin bo'lmasam
Xushomadni bilmasam
Meni darrov kesishar
O'rnimga nok ekishar.
Yuqoridagi she'r behi haqida.

Unda ilk o'quvchini behi haqidagi tasavvurlarini boyitadi. Uning tashqi ko'rinishi bilan birgalikda ta'rifi haqida ham ma'lumot berib o'tiladi.

Yani kichik yoshdagi bolalar behining nordon turi ham borligi, jahli yani qattiqligi haqida ma'lumotga ega emas.

Tom ma'noda Anvar Obidjonning ushbu turkumdagi she'rlari "Kichik yoshdagi bolalar uchun ma'lumotnoma" deya atash mumkin.

Anvar Obidjon nafaqat yuqoridagi, balki turli mavzularda bolalar uchun qalam tebratgan. "Ignalarim chiroyli", "Ajoyibxona", "Shirin so'ylar jajjivoylar" va boshqa to'plamlarida so'zimizning isbotiga guvoh bo'lamiz.

Anvar Obidjonning bolalar adabiyotidagi o'rni zamonaviy o'zbek adabiyoti kontekstida serqirra va chuqur ahamiyatga ega.

Uning asarlari nafaqat adabiy-estetik jihatdan mukammal, balki pedagogik, psixologik va tarbiyaviy nuqtayi nazardan ham katta ahamiyatga ega.

Shoir bolalar bilan ularga mos tilda, ularga xos mavzularda va ular tushuna oladigan badiiy vositalar bilan muloqot qilgan. Bu yondashuv uning asarlarini dolzarb va hayotiy qiladi.

Anvar Obidjonning bolalar adabiyotidagi hissasi, ayniqsa, bola ruhiyatini tushunish, ularning tilida fikr yuritish va ularga milliy qadriyatlar bilan boyitilgan zamonaviy hayotni tushuntirishda namoyon bo'ladi.

Uning ijodi bugungi va kelajak avlod uchun adabiy, estetik va ma'naviy tarbiyaning muhim manbaidir. uning she'rlari zamonaviy bolalar adabiyotini boyitishda va mazmun ko'lamini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar adabiyotini bugungi kunda saqlab qolinishida va jahon miqiyosida bellasha olishida Anvar Obidjonning ijodi va shaxsi beqiyos.

Bolalar ongini o'stirishda va dunyoqarashini kengaytirishda kichik yoshdagi bolalar uchun she'rlari bilan yanada ko'proq tanitish bugungi kundagi metodistlar, o'qtuvchilar va ota-onalarning asosiy vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anvar Obidjon. Voy, bola. -Toshkent: Sharq, 2010.

2. Anvar Obidjon. Kim katta? -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2015.
3. Anvar Obidjon. Sehr gar bola. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. O'zbek bolalar adabiyoti tarixi. -Toshkent: Fan, 2015.
5. G'afur G'ulom. Bolalar adabiyoti nazariyasi. -Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
6. Xolbo'tayeva M. Zamonaviy bolalar adabiyoti va uslub. -Buxoro: Ilm Ziya, 2020.